



Tadqiqot UZ

2021

ЎЗБЕКИСТОН  
ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ  
ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАРИ  
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



Crossref



CONFERENCES.UZ

31 MART  
№26

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 26-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
8-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
26-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-8**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
26-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-8**

**ТОШКЕНТ-2021**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

## "Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 26-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 март 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 14 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

### **3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

### **5.Давлат бошқаруви**

PhD Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

### **6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

### **7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**АДАБИЁТ**

<b>1. Nasiba Xo‘janova</b>	
SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA INSON TAQDIRI MUAMMOSI .....	7
<b>2. Egamberdiyeva Gulchiroy Esan qizi</b>	
OYDIN НОЛІYEVA IJODIDA FOLKLORIZMLAR .....	9
<b>3. Mardonova Xonzoda Anvar qizi</b>	
BITTA SHOIR KAMAYSA NIMA .....	11
<b>4. Деконова Махсума Шавкатовна</b>	
ОЙБЕК ШАХСИЯТИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ .....	12



## АДАБИЁТ

### SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA INSON TAQDIRI MUAMMOSI

Nasiba Xo'janova

Termiz davlat universiteti  
o'zbek filologiya fakulteti 3-kurs talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayevning "Notanish odam" , "Odam" , "Ozodlik" hikoyalarida inson qismati bilan bog'liq muammoli masalalar talqin etilgan. Obrazlar tizimi qiyosiy metod asosida tahlil qilingan. Yosh tadqiqotchi muallif g'oyaviy niyatini to'g'ri anglay olgan. Adibning ijodiy laboratoriyasiga ancha kirib borgan.

**Kalit so'zlar:** Surxon muhiti, notanish odam, tanholik, Tolstoy, Kukaracha, kamar

Adabiyot quroli so'z! Aynan so'z orqali hayotni, insonni badiiy talqin qilgan, adabiyot olamida kitobxon mehrini qozongan adib Shukur Xolmirzayevdir.

Yozuvchi ijodining alohida xususiyati shundaki, adib milliy hikoya janrini ustoz Abdulla Qahhordan keyin, yangi, yuqori cho'qqiga ko'tardi. Muallifning "Olis yulduzlar ostida" , "Hayot abadiy" , "Og'ir tosh ko'chsa" , "Bodom qishda gulladi" , "Tog'larga qor tushdi" kabi hikoyalar to'plamining nashr etilishi o'zbek adabiyotining hikoyachilikdagi katta yutug'idir.

Shukur Xolmirzayev uslubi haqida adabiyotshunos Ibrohim G'ofurov shunday yozadi: "U shu paytgacha o'zbek adabiyotida qalam tebratib kelayotgan katta- kichik yozuvchilarning birontasiga o'xshamasdi. Uning jumlasidan adabiyotda yangilik, yangi jumla qurilishi, yangi uslub boshlanayotganga o'xshardi, ajabki, o'z ideallariga ham o'xshamasdi u".

Shu o'rinda Shukur Xolmirzayevning o'zi "Uslubda hamma narsa mujassam: dunyoqarashdan tortib, nuqta qo'yishgacha..." - degan edi. Yozuvchi uslubiga e'tibor qaratadigan bo'lsangiz, sodda, har qanday jimmimadorlikdan xoli. Qahramonlari holatini nihoyatda ixcham, ma'nodor tasvirlaydi. Asarni lo'nda ohangdor , zamzamali dialoglar asosida qurishni o'z yozuvchilik uslubi darajasiga ko'taradi.

Nemis donishmandi I.V. Gyote ta'kidlaganidek " Har qanday san'at asarida , u xoh katta yo kichik bo'lsin, barcha voqealar mohiyatga borib taqaladi" . Mohiyat esa har qanday badiiy asarning ichki ustuni ; ijodkor dunyoqarashi hamda iymon- e'tiqodining ifodasidir.

Yozuvchining ko'pgina hikoyalari hajmi kichik, lekin salmog'i katta .Masalan: " Notanish odam" hikoyasini olaylik.

Hikoya " Ovga borayotgan edim, havo aynidi, " Bahor havosida, bir sevalab o'tar" , deb ketaverdim... Turgan yerimdan ikki yuz qadamcha narida jar va jarga tushaverishda ovchilar , yo'lovchilar qo'nib o'tadigan kamarcha borligi yodimga tushdi. Kamarga kirdim. O'rtada gulxan yonar , chetroqda oqchil, chakmon kiygan o'rta bo'y bir kishi eshagini ayilini bo'shatardi..." Shu o'rinda adibning hikoya boshidanoq o'quvchini ergashtirib ketish mahoratiga qoyil qolish kerak. Notanish odam kamarga kirgan ovchi yigit oldiga borini to'kib tashlaydi. Lekin yigit ko'nglida unga nisbatan gumon kuchayadi.Kamarga notanish odam bir quchoq o'tinni ko'tarib kirib " isina bering" deydi. Yigit esa olovini minnat qilyapti deb tushunadi. Birozdan so'ng tashqariga chiqib notanish odamning daryo toshqini toshlarning tagigatiqb tashlagan shox- shabbalarini terayotganini ko'radi va bu o'tinni uyiga olib ketadi deb o'ylaydi.Ko'p o'tmay yigit o'zining shuhbali xayollaridan uyalib ketadi. Chunki u odam o'tinni olib ketish uchun emas , boshqa bir yo'lovchilar sovuq havoda o't yoqib isinishlari uchun tashib kelgan ekan.

Kichik hajmli bu hikoyaning yozilganiga ancha bo'lди. Bugun zamon o'zgardi , zamonni o'zgartirgan boshqa odamlarga qo'shilib , ko'pchilik o'zgardi. Lekin haligacha faqat o'zini emas, balki boshqalarni ham o'ylaydiganlar , buning uchun o'zini o'tga- cho'qqa uradigan insonlar ham bor! Bu hikoya menga gruzin yozuvchisi Nodar Dumbadzening "Kukaracha" qissasini eslatadi. Qissadagi Kukaracha ham Notanish odamga o'xshab odamlarga ta'masiz, beg'araz yordam beradi,



evaziga hech narsa kutmaydi va buni o'zining insoniy burchi deb biladi. To'g'ri, hayotda yaxshi insonlar kam, lekin, nazarimda oz bo'lsa ham Kukaracha va Notanish odamlardek insonlarning hayotda borligi uchun jamiyatda muvozanat saqlanib turibdi. Asarning ahamiyati ham aynan mana shunda.

Shukur Xolmirzayev haqiqiy, chin professional yozuvchi edi. Ayniqsa, yozuvchining insonga umr va uning mazmuni haqida chuqrush mushohada yuritish imkonini beradigan "ODAM" hikoyasi juda ta'sirli. Bejiz yozuvchi bu asarni "falsafiy hikoya" deb nomlamagan. Hikoyada Rahima ismli ayolning hayoti, kechmish - kechinmalari qalamga olinadi.

Rahima onasi vafotidan so'ng o'zi xohlamagan Shodmon polvonga turmushga chiqadi. Oradan to'rt yil o'tib inqilob boshlanadi, shu orada turmush o'rtog'i vafot etadi. Rahima uchta bolasi bilan beva qoladi. U el qatori kolxozga kiradi va uning faol a'zosiga aylanadi. "Qizillar kelyapti" degan ovoza tarqalib, odamlar bilan tog'ga qochadi. Kichik farzandi tog'da ochlikdan o'lib ketadi.

Yillar o'tdi... Endi urush boshlandi. Yolg'iz o'g'li Abdurahim frontga ketdi. Bir yil o'tib o'g'lidan qoraxat keladi, kelini ikki bolasini ham Rahima opaga tashlab chiqib ketadi. Urush ham tugadi. Umrning shunday bir pallasi kiradi: barcha g'am- alamlar, o'rtanishlar, izardarning o'rni bitadi. Bitmaydigan yara yo'q. Rahima buvi endi nevaralariga qarar, ularga o'tmishtdan ertaklar aytib berar, uning butun hayoti ham ertakka o'xshardi. Lekin suronli yillar o'z ta'sirini o'tkazadi. Umr poyonida ayolning esdan chiqaradigan odati paydo bo'ldi- xotirasiniyo'qotdi. Ayol hayotda ro'shnolik ko'rmadi. Aslida, Rahima buvi kechirgan izardarlari, qiyinchiliklarni ta'riflashga va umuman so'zlarga sig'dirib bo'larmikin? So'z ojiz. Lekin tabiatning adolatini qarangki, umr so'ngida ayolning xotirasi tiklanadi va hayotdan rozi bo'lib ko'z yumadi. Frans Fafka aytganidek "Xayotning ma'nosi shundaki, uning oxiri bor".

Har qanday asar hajman kichik yoki katta bo'lishidan qat'iy nazar mukammal xarakterlari, xotiraga muhrlanib qoladigan betakror epizodlari bilan adabiyot maydonida voqeа bo'ladi, ya'ni umrboqiylik maqomiga erishadi. Shukur Xolmirzayev ana shunday maqomga erishgan hikoyalaridan biri "TANHOLIK" dir. Hikoyada bashariyat murabbiylaridan biri, "o'n to'qqizinchi asrning eng murakkab shaxslaridan biri" L.N. Tolstoy haqida. Asarda ulug' adibning umr so'ngidagi alamli o'ylari, izardolari, falsafasi-yu donishmandligi mohirona tasvirlangan. Inson shaxsi uning taniga emas, ruhiyatiga taalluqlidir. Hikoyani o'qib Shukur Xolmirzayev va Tolstoy o'rtasida ruhiy yaqinlikni ko'rish mumkin. Adabiyotshunos Normat Yo'ldoshev aytganidek, Shukur Xolmirzayev ham shaxsiyati butun ijodkor edi".

### Foydalilanigan adabiyotlar.

1. Sh. Xolmirzayev "Saylanma" 1 jild Toshkent. "Sharq" nashriyoti . 2003.
2. N. Erkayevana "O'tmishtga nigoh". Toshkent. "Muhr Press" MCHJ.2018



## OYDIN HOJIYEVA IJODIDA FOLKLORIZMLAR

Egamberdiyeva Gulchiroy Esan qizi  
BuxDU magistranti  
Telefon:+998(91)9864548  
E-mail: gulchiroy.egamberdiyeva@bk.ru

**Annotatsiya.** Maqolada Oydin Hojiyevaning xalqona uslubi hamda folklorizmlardan foydalanish mahorati haqida fikr yuritilgan.

**Tayanch so'zlar:** folklorizm, maqol, matal, xalq qo'shiqlari, rivoyat, alla, an'nana, ertak, afsona, boychechak, binafsha, Navro'z, stilizatsiya.

Sodda va xalqona ohanglarda kuylash Oydin Hojiyeva she'riyatida tutgan o'ziga xos yo'lidir. Shu boisdan ham uning she'rlari xalq qalbidan chuqur joy olgan. Biz quyida Oydin Hojiyevani xalq ijodiyoti bilimdoni sifatida xalq qo'shiq, aytim, yor-yor, o'lan, maqol, ertak, rivoyat va boshqa janrlarini badiiy ijodga omixta qilganini ko'ramiz.

Shoira "Ba'zan" deb sarlavha qo'ygan she'rlarining birida tanganing ham ikki tomoni bo'lganidek, hayotda inson olqish, maqtov ham olishi, tanbeh, dashnom ham eshitishi mumkin, shunday kunlarda inson o'ylab, fikrlab xulosa va hukm chiqarishi, ilqishga ham, tanbehga ham munosib javob qaytarishi, o'zini munosib tuta olishi kerakligini ta'kidlab, "Yetti o'lchab, bir kes" degan xalq maqoldidan o'z fikrlarini asoslashda foydalanadi:

"Yetti o'lchab, bir kesgin" degan  
Maqol tushar shunda esimga.  
O'ylab ko'rsam goh yoqmas ekan  
To'g'ri dashnom hatto o'zimga[1,31].

Muharrama oyi xotirasiga bag'ishlangan "Armon" she'rida inson borki, uning bu dunyoda orzu qilib erisholmagan va yoxud taqdir nasib etmagan armonlari bo'lishi muqarrarligi xususida so'z boradi. Shoira mana shu armonni aslida yashashga undovchi kuch deydi. Boisi biriga yetmadimi demak boshqasiga erishish uchun harakat qiladi, qandaydir umid bilan yashaydi. Ona uchun farzandning o'zi bir baxt bo'lsa, uning baxtini ko'rish ikki karra baxtdir.

Yelkalari tog`day-tog`day deng,  
Yigit bo`lib ulg`aysa omon.  
Ona deydi: baxti kulib o`ng  
Uylantirsam yo`q menda armon.  
To`y ham o`tar. Yil adog`ida  
Shirinliklar sochar beshikdan.  
Der: munkillab qolgan chog`imda  
Kuyov bo`lib kirsin eshikdan[1,37].

She'nda ona o`g`lini uylantirib, undan nevara ko`rgach, o`zbek xalqi urf-odatiga ko'ra chaqaloqning hayoti ham shirin va totli, mazmunli va baxtli bo`lsin degan ezgu niyatda beshik ustidan shirinliklar sochish baxtiga ko`z tikadi.

Ota-bobolarimiz tilida "Dunyoda mehnatdan hech kim o'lmaydi", "Mehnatning aybi yo`q", "Mehnat qilgan xor bo`lmaydi" singari naqllarni tez-tez eshitamiz. Albatta bugungi mehnat ertangi rohat halol mehnatning noni ham o'zgacha totli bo`ladi. Shoira quyidagi she'rida o'zining ham shunday o'gitlar ta'sirida katta bo`lganligini aytib o'tadi:

Mehnatdan o`lмаган dunyoda hech kim  
Shirin narsa bormi mehnat nonidan.  
Ertangi bug`doyday, hosilday kechki –  
Baraka bo`lar u el xirmonida[1,38].

O.Hojiyeva onasini eslab yozgan bir she'rida onasi tilidan aytilgan qo'shiqlarni eslab, o'zi ham shu qo'shiq ohangiga mos xalqona she'r yozadi:

"Oftob bilan so'yashib turgin,  
Gullar bilan bo'yashib turgin,  
Yellar bilan quvashib turgin,  
Oylar bilan sirlashib turgin!.." [1,45]  
Ovnardimqolar edim hovlida yolg`iz



Bugun nechun ovutguvchi so`zlar aytmaysiz?

Yoki:

“Qizil gul bandiday boylanayin men,

Senga balogardon saylanayin men.

Unib-o`s ko`zimning qorachug`ida

Atrofingda kunday aylanayin men!..”

Siz kuylagan bu qo`shiqning qadri buncha bilindi,

Kiprigimga sog`inch mezon uqdasidek ilindi[1,46].

Ulg`aygach yoshligida eshitgan bobo-buvilar pandini teran nigoh bilan anglab, hayot haqiqatini tushuna boshlagan shoira xalq maqollarining naqadar to`g`ri ekanligiga yana bir bor amin bo`ladi:

Go`dak edim, ko`p narsaga yetmasdi aqlim,

Bilganlarim bekinmachoq va to`ptosh o`yin.

Qulog`imga chalinardi keksalar naqli:

“Falonchimi, puch yong`oqqa to`ldirar qo`yin!”

Boshdan o`tgan tabib derlar. Ulg`aydim bukun,

Hikmatlarning mag`zin chaqib bo`lmasman hayron.

Keksalarning aytganlari ekan chippa-chin:

Boshda yong`oq chaqar ekan ba`zi bir inson[1,52]!

She`rda “odamning qo`ynini puch yong`oqqa to`ldirmoq” hamda “boshda yong`oq chaqmoq” iboralari keksalar naqli, keksalarning aytganlari tarzida aytilsa-da ular lug`atda tayyor birlik sifatida qaralgani uchun xalq maqollari emas, shuning uchun ularni folklorizm namunalari deb ayta olmaymiz. Bu she`rda faqatgina “Tabib tabib emas, boshidan o`tgan tabib” maqolining bir qismi “Boshidan o`tgan tabib” tarzida qo`llangan va bu folklorizm bo`la oladi.

Shoira bir she`rida mehr elchisi bo`lib kelgan xatni o`qish asnosida qalbida kurashgan hislar jangini tasvirlar ekab, “Elchiga o`lim yo`q” degan xalq maqolini ishlataladi. Bunda o`zga bir kishiga bo`lgan ishonchsizlik uchun xatni ayblash o`rinsiz, ammo bu xat elchi ham bo`lolmadi ko`nglimni ololmadi deya nadomat chekadi:

O`lim yo`qdir elchiga azal,

Kim qo`ymabdi hikmatga ixlos?

Oломади ко`nglimni bu xat,

Elchimas bu! Shunchaki qog`oz[1,60].

Ko`rinib turibdiki, Oydin Hojiyevaning deyarli har bir she`ri xalqona ohang, xalqona ifodanining ruhi bor. Xalq yo`lida aytilgan, haq yo`lida aytilgan maqollarni she`riyatda hech bir ijodkor O.Hojiyevachalik sermahsul qo`llamagan desak, hech mubolag`a bo`lmaydi. Xalqona ruhning ustuvorligi Oydin Hojiyevaning chinakam Xalq shoiri ekanligidan dalolatdir.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Ҳожиева О. Шом шуълалари. – Т.: Шарқ , 2010.
2. Шарипова Л. Шеърият ва фольклор. –Т.: Наврӯз, 2019.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. М.: Рус. Яз.1981.1-жилд, 115-бет.



## BITTA SHOIR KAMAYSA NIMA

**Mardonova Xonzoda Anvar qizi**  
Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Anvar Obidjon she'riyatining badiiylik xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Muallifning adabiyotga oid o'z qarashlari uning she'rlari misolida ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** badiy xususiyatlar, she'riyat, adabiyot, she'r.

**Annotation:** This article discusses the artisitic features of Anvar Abidjan's poetry. The author's own views on literature are revealed in the example of his poems.

**Key words:** artistic features, poetry, literature, poem.

Adabiyot- chin ma'noda inson ko'nglini o'z nuri bilan yoritadigan tunganmas chiroq. Adabiyotimizda ijod qilayotgan shoirlar, yozuvchilar qalami bilan yaratilgan namunalar kitobxonlar qalbini yoritadi. Darhaqiqat, ijodning o'zi Buyuk Qudrat tomonidan berilgan in'om. Bu in'om kuchini har bir qalam sohibi turlicha tasvirlaydi. Adabiyot gulshanining buyuk darg`alaridan biri Abdulhamid Cho'lpon ijodni, shoirlikni quyidagi satrlarda shunday tasvirlaydi:

"Shoirlik, menda bir soyami deyman,  
Har bir tushunchamni yoza olmagach!  
Rassomdek xayolni chiza olmagach!  
Haqir borlig'imga ko'p afsus yeyman...  
Xayolim yuksakdan tushib ketadir,  
Shoirlik chang bo'lib uchib ketadir..."

O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon ham hayotning har bir lahzasi ichra qaynab ijod qilishga intiluvchi, umrining har bir damini bor quvonch-u iztiroblari bilan kuylovchi adibdir. U butun ijod olamini bolalar uchun, baxt va kurashuvchanlik tuyg`ulari bilan yashashga undovchi she'rlar yozishga baxsh etdi. Ushbu maqolada uning "Bitta shoir kamaysa nima..." deb boshlanuvchi she'ri, uning badiiy xususiyatlari, ijodkorning she'riyat va shoirlikka qalban munosabati xususida so'z yuritiladi:

"Bitta shoir kamaysa, nima,  
Charx yaratar boshqa nusxasin.  
Cho'kib ketsa to`fonda kema,  
Pishiqrog`in yasar ustasi"

Aslida ham bu olamda she'r ko'p. Shoir ko'p. Bir qalam sohibi hayotdan o'tsa, yangisi paydo bo'ladi. Muallif ta'kidlaganidek, kema to`fonda cho'kib ketsa, usta undanda pishiqrog`ini yasaydi. Shoirlar ham xuddi qaynab turgan buloqqa o'xshaydi. Ammo asl shoirlar hech qachon o'lmaydi.

Ikkinci bandda shoir qalbga murojaat qiladi. Uni to`fonlardan seskanmaslikka, qayiq kabi qirg`oqda suzish emas, kema bo'lib ummonga talpinishga chorlaydi:

To`fonlardan seskanma, qalbim,  
Qayiqlardek suzma qirg`oqlab.  
Kemaman deb ummonga talpin,  
Yuz baloga o`zingni chog`lab.

Hayotda ham shu shoirga amal qilgan ijodkor badiiyatning har sohasida; nazm, dramaturgiya, kinoda bolalar va kattalar uchun birday asarlar yozib keldi. Turli janrlarda qalam tebratishning asosiy sababini bolalar yozuvchisi shunday izohlaydi:

Ijod olamiga qadam bosibmanki, ko'nglimning quliga aylanib, bor inon ixtiyorimni deyarli uning qo'liga topshirib qo'yanman. Shu-shu, uning izmidan chiqolmayman, "Ke, oshna, manavi narsani yozaylik", dedimi, miq etmasdan itoat qilaman, u shivirlayveradi, men shosha-pisha qog`ozga tushiraman

Balki, shu boisdir shoir she'rlar qalb, ko'ngil, zamon tanlamaydi. Har qanday zamonda ham o'z o'quvchisini yo'qotmaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulhamid Cho'lpon. Buloqlar qaynaydi.-T.:Cho'lpon nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi,2007.26.
2. Anvar Obidjon. Tanlangan she'rlar.-Toshkent.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2006.4.
3. "Bekajon", 2005-yil, 74-son



## ОЙБЕК ШАХСИЯТИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ

Деҳқонова Махсума Шавкатовна  
Фарғона ВХТҲҚТМОҲМ  
Тилларни ўқитиши методикаси  
кафедраси ўқитувчиси  
e-mail: dehqonovamaxsuma@gmail.com

**Аннотация:** мақолада Ойбек шахсиятининг замондошлари томонидан ўрганилиши, адабиётшунос олимларнинг адаб шахси ҳақидаги фикрлари таҳлил этилган.

**Калит сўзлар:** адаб ҳаёти, шахсияти, феномени, характер ва портрет

XX асрда ўзбек адабиётини ўзининг тақрорланмас ва ўлмас асарлари билан бойитган Мусо Тошмуҳаммад ўғли Ойбек ижоди бўйича адабиётшунослик ҳамда адабий танқиднинг турли йўналишларида бир-бирига яқин ёки бири иккинчисини тақрорламайдиган, адаб ҳаёти, ижодий принципларини реал кўрсатиб берувчи бир қатор тадқиқотлар амалга оширилди, натижада, ёзувчи ҳақида хотиралар, инсон сифатидаги характеристирига, бадиий адабиёт, илмий тадқиқот соҳасидаги салоҳиятига баҳо берувчи қайдлар пайдо бўлди. Шу ўринда Ҳамид Олимжоннинг буюк адаб ҳақидаги кўйидаги сўзлари ушбу фикрларни тўла тасдиқлади: “Ойбек прозада шоири поэзияда прозаикдир. У энг майда икир-чикирларни шеърда кўйлай биладиган талантли шоирдир. У кишилар портрети, кўз ва қош харакатларини жуда аниқ тасвирлаб беради. Шу билан бирга, унинг прозаси лирик поэзия даражасига кўтарилади. Ойбек кишининг қалбига кира олади, юракнинг нозик пардаларини чертиб ўтади. “Ўч” ҳамда “Бахтигул ва Соғиндиқ” каби ажойиб поэмаларнинг автори бўлган Ойбек прозага кўчиб, “Кутлуғ қон” ва Навоий” деган иккита дилрабо роман яратди”<sup>1</sup>. Бундай иқтидор ҳамма қаламкашга ҳам насиб этавермайди. Адаб насрини мутолаа қилганимизда, унда бошдан охирига қадар бир мусиқий ритм асар маромини ўзида маҳкам ушлаб турганини хис қиласиз. Ана шу мусиқийлик ўкувчини оҳанрабодай ўзига тортиб туради. Мутолаани бошлаб олгач, то тугатмагунча, китобдан айрилиб бўлмайди. Ва иккинчиси буюк ёзувчи романлари ҳақида “иккита дилрабо роман” иборасидир. Бу таъриф нафақат адаб Ойбек асарларига, балки шахсиятига ҳам дахлдор, дейилса, асло муболаға бўлмайди<sup>2</sup>. Ҳақиқатан, Ойбек шеърияти воқеаларнинг тўлиқ акс этиши, барча деталларнинг аниқ келтирилиши, кечинмалар қамровининг кенглиги билан насрга яқин туради. Насри эса, ижодкор бадиатининг бойлиги, қаҳрамон хис-туйғуларининг ёрқин акс этиши, бадиий тасвир воситаларидан унумли фойдаланиши билан назмга яқинлаша олган. Ҳамид Олимжоннинг ушбу фикрлари тасдигини адабиётшунос олим Сувон Мели кўйидагича изоҳлайди: “бу сўз нафақат Ойбек насрини, балки Чингиз Айтматов ижоди, айниқса, унинг илк палласини аниқ тавсифлайдиган гап-ку! Бунинг устига навқирон қирғиз адабининг жаҳонга довруқ таратган илк қиссалари «лирик поэзия даражасига» кўтарилгани, айни шундай дилтортар лирикаси, кувончи ва мунги, севгиси ва нафрати билан китобхонлар кўнглини ром этгани шоён ҳақиқат-ку!” Олимнинг қайд этишича, Ойбек прозасининг лирик поэзия даражасига кўтарилиши, Чингиз Айтматовнинг насрига ҳам дахлдор. Олим икки буюк адабни шу маънода муқояса этади.

Адабнинг яна бир бошқа замондоши М.Шайхзода: “Адабий ижоднинг машақватли ва серташвиш интихосини Ойбек ҳамнафаслигига бошладим”, деб улуғ адабнинг тенгдошларига ҳам бир устоздек, ҳаммаслак ва ҳамнафасдек эҳтиром билан тилга олиб ўтади. “Тошкентнома” лирик достонида Ойбек ва F.Ғуломларни таърифлаб, “Бири шеъримизнинг ўтли юраги, Бири наср уйининг баланд тиргаги”, дея Ойбек ижодига, унинг шахсиятига, феноменига юксак баҳо беради. Мана бу фикрлари эса бадиий ижодда Ойбек мартабаси ва даражасининг замондошлари орасида бениҳоя баланд ва улуғлигини тасдиқлади: “Шубҳасиз, Ойбек ўзбек адабиётида ижодий иш интизомини ўзига темир қоида қилиб олган ва шуниси билан ёшларга яққол ўрнак бўла оладиган адаб. Мунтазам меҳнати билан

<sup>1</sup> Олимжон Ҳ. Муқаммал асарлар тўплами. 10 томлик. 6-том. – Тошкент: Фан, 1982. –Б. 280-281.

<sup>2</sup> Қаранг. Ойбек замондошлари хотирасида. – Тошкент: Faafur Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2005. – Б. 16.



бир қаторда, жуда кенг маърифат ва теран билим доирасига эга бўлиш, ҳаётни, тарихни, инсонларни чукур ўрганиш Ойбекнинг кенг қулоч отиб ривожланган ижод унумларини яратишга имконият берди, деб ўйлайман. Ҳа, ҳақиқатан ҳам, Ойбек оламшумул адиб, насримизнинг бузруквори, улкан мутафаккир, камтарлик ва олижанобликда мисли йўқ вали шахс десам, муболаға бўлмас”<sup>1</sup>. Шайхзоданинг бу фикрлари Ойбекнинг шахс сифатида ўз замондошларига қай даражада ўрнак бўла олганига ишора эканлигини сезиш қийин эмас. “Ойбек янги замон ўзбек адабиётининг бешигини тебратганлардан бири, байроқдорларидан бири ва биринчилардандир”<sup>2</sup>. Миртемир домла Ойбекдек улуғ инсон ва адибни бежиз “Ойбек янги замон ўзбек адабиётининг бешигини тебратганлардан бири” сифатида баҳоламаганлар. Дарҳақиқат, Ойбек ўзбек адабиётининг Ҳамза, Чўлпон, Фитрат, Беҳбудий, Ибрат, Қодирий сингари адиблари қаторида кўп асрлик ўзбек адабиётини янги замон, янги йўналиш ва услублар шароитида оёққа кўйган адиблардандир. Ойбекшуносликнинг шаклланиши ва бу юксак истеъодд соҳибини улуғлаш адабий танқид зиммасига тушган. Бу жараёнда Ойбек шахсиятига, унинг ижоддаги ўрнига, асарларига, бу асарларнинг яратилиш жабҳаларига, ана шу тўлғокли онларда адиб руҳиятидаги ўзгаришларга ва ижодкор шахси билан боғлик барча ҳодисаларга бир ўринда кўп, бир ўринда кам баҳо бериб борилган. Қолаверса, адибнинг айrim кечинма ва ҳолатлари, баъзи асарларига давр мафкураси таъсирида бир томонлама баҳо берилган вақтлар ҳам бўлган.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Каримов Н. Ойбек ва Зарифа. – Тошкент: Ўзбекистон, 1990. – 127 б.
2. Каримов Н. Ойбек гулшанида қолган ғунчалар. – Тошкент: Ўзфаннашр, 1985. – 78 б.

<sup>1</sup> Мақсад Шайхзода. Адиб ҳақида қайдлар // Ойбек замондошлари хотирасида. – Тошкент: Faafur Fulom номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2005. – Б. 16-17.

<sup>2</sup> Миртемир Устоз ҳақида // Ойбек замондошлари хотирасида. – Тошкент: Faafur Fulom номидаги нашриёт- матбаа ижодий уйи, 2005. – Б. 18– 19.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 26-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(8-қисм)**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.03.2021

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000